

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна
 ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
 ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15

Umarov Sardor Yakubovich
 QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
 DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna
 O'ZBEKİSTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
 YO'LLARI 21-29

Халилдинов Азизбек Абдуқаҳхоровиҷ
 КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
 БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34

Мавлянов Мажид, Урдушев Ҳамракуլ
 КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

Асроров Азизбек Исомиддин угли
 ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
 КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52

Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi
 MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

Камалов Ақмал Сайдакбаровиҷ
 ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
 ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАҲСИРИНИ БАҲОЛАШ
 УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68

Namazov Gafur Shokulovich
 IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Rasulov Azizkhon Mukhammadqodirovich
 YANGI O'ZBEKİSTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimjanovna
 ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich
 JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abdusalilovna
 KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullahayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi
 MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облоқулович</i> МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАҶНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Xayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonus Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTALARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI..... 207-212

Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li

TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 213-220

Раимова Шохсанам Ғайратжоновна

РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАННИГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ 221-227

Mukumov Bobur

CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL..... 228-234

Нодирахон Абдурахманова

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА..... 235-239

Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли

ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА..... 240-246

Turakulova Nazira

MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH 247-260

Якубов Бекзод Эркинбаевич

КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ..... 261-265

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich

FIZIKA FANINI IJODIY O'ZLASHTIRISH YO'LLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) 266-271

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna

O'ZBEKİSTON OLİY O'QUV YURTЛАRIDA İSPAN TİLİ BO'YICHA İJTİMOİY-MADANIY KOMPETENTLİKNI O'QITISH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISH 272-281

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI..... 282-287

Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 288-291

Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li

IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI..... 292-296

Jumaboev Nabi Pardaboevich

THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM 297-304

Kayumov Erkin Kazakbayevich

TASVIRIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI 305-310

<i>Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNG EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI	311-317
<i>Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna</i> SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI.....	318-322

Umarov Sardor Yakubovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
sardor.umarov.2013@mail.ru

QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI, DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR

Annotatsiya. Maqolada ikkinchi jahon urushidan keyin ikkiga bo'lib yuborilgan Germaniya davlatining qaytadan birlashganidan so'ng demografik o'zgarishlar, migratsiya, mehnat bozorini isloh qilish, aholi bandligi, birlashuvning ijobiy oqibatlari bilan birga salbiy oqibatlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Germaniya, demografik o'zgarishlar, migratsiya, mehnat bozori, ishsizlik, G.Sheryoder, A.Merkel.

Umarov Sardor Yakubovich

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

LABOR MARKET REFORM, EMPLOYMENT, DEMOGRAPHIC CHANGE IN REUNIFIED GERMANY

Abstract. The article analyzes the demographic changes, migration, labor market reform, population employment, and the negative consequences of reunification after the reunification of the German state, which was divided into two after the Second World War.

Key words: Germany, demographic changes, migration, labor market, unemployment, G. Sheröder, A. Merkel.

Умаров Сардор Якубович

Самаркандский государственный
университет имени Шарофа Рашидова

РЕФОРМА РЫНКА ТРУДА, ЗАНЯТОСТЬ, ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ОБЪЕДИНЕННОЙ ГЕРМАНИИ

Аннотация. В статье анализируются демографические изменения, миграция, реформа рынка труда, занятость населения, а также негативные последствия воссоединения после воссоединения немецкого государства, разделившегося на две части после Второй мировой войны.

Ключевые слова: Германия, демографические изменения, миграция, рынок труда, безработица, Г. Шерёдер, А. Меркель.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N02>

Kirish. Birlashuvdan so'ng Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi o'zining mashhur barqarorligini yo'qota boshladi. Sharqi Germaniya iqtisodiyotini tuzilmaviy qayta qurish ishlab chiqarishning keskin pasayishini keltirib chiqardi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash maqsadida "yangi yerlar"dagi ishchi o'rinalarining 50 foizi tugatildi. Natijada ishsizlik oshib

bordi va uning yashirin shakllarini ham hisobga olganda 30 foizini tashkil etdi. 1990-yil iyulida GFR hukumati tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti esa sharqiy nemislar uchun haqiqiy “shok terapiyasi” bo’ldi. Buning natijasida Sharqiy Germaniya mahsulot bozori larzaga tushdi, bu yerlarda aholining yashash darajasi sezilarli darajada pasaya boshladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar –tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan

Muhokama va natijalar. Germaniya birlashishining ichki oqibatlari ancha murakkab kechdi. Turlicha ijtimoiy tuzumda o’nlab yillar davomida yashash, bir millatni bo’lib tashlab bir-biriga qarama-qarshi qo’ygan tashviqotning faolligi, ijtimoiy munosabatlar, hayotiy va milliy qadriyatlarni turlicha qabul qilish, tarixan shakllangan psixologik xususiyatlar — buning hammasi yagona nemis millatining qayta shakllanishini qiyinlashtirdi. Birlashish jarayonida o’zaro qarama-qarshilik, jirkanish, mensimaslik va G’arbiy Germaniyadagi ishbilarmon va siyosiy doiralar tomonidan sharqiy nemislarni yashirinchka kamsitishlar ro’y berdi. GDR aholisining ilgarigi sara guruhi-harbiy xizmatchilar, sportchilar, madaniyat xodimlari va ziyoilardan sanoqli kishilargina o’zlariga yarasha arzigulik ish joyiga ega bo’lishdi. Germaniya birlashishining mo’jizaviy iqtisodiy samarasi haqidagi umidlar xom-xayol bo’lib chiqdi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni birlashtirish strategik rejalashtirishsiz, sinovlar va xatolar yo’li bilan amalga oshirildi. Oldingi ishlab chiqarish va savdo infratuzilmasining barbod bo’lishi, tuzilmaviy qayta qurishning boshlanishi “yangi yerlar”da ishlab chiqarishning keskin pasayib ketishiga olib keldi. Bu yerda ishchi o’rinlarining 50%dan ko’prog’i yo’q qilingan edi. Ishsizlik, 30%ni tashkil etdi. 1990-yil iyulida pul islohotining o’tkazilishi Sharqiy Germaniya uchun kutilmagan hol bo’ldi. GDR markalari doychmarkalarga almashtirildi. O’tish davrida oylik maoshi, stipendiyalar, nafaqalar, yashash joyi uchun ijara to’lovlarining oldingi hajmi saqlab qolindi va aholi uchun almashtirish 1:1 koeffitsent bilan bolalarga 2 ming markagacha, kattalarga 4 ming markagacha va nafaqaxo’rlarga 6 ming markagacha amalga oshirildi. Bundan ortiq mablag’lar 1:2 nisbatda almashtirildi. Ammo tez orada Sharqiy Germaniyadagi mahsulot bozori izdan chiqdi va bu yerlarda aholi turmush darajasi nihoyatda pasayib ketdi.

Kanslerlik lavozimini egallagandan so’ng partiya ichida G.Shryoderning yangi hukumati shakllanadi. Bu hukumatning tarkibi 1999-yil iyun oyida Y.Bler va G.Shryoder o’rtasida tuzilgan “uchinchi yo’l, yangi markaz” deb nomlangan qo’shma deklaratsiyada e’lon qilindi. Bu tiklanishning yo’llari birinchi navbatda davlat xarajatlarini kamaytirish lozimligi, ijtimoiy sug’urta tizimini umuman o’zgartirish kerakligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda davlat rolini cheklash, tadbirkor va ishchilarning hamkorligini chuqurlashtirish, bozor iqtisodi va erkin savdo imkoniyatlarini kengaytirish, kichik va o’rta biznesga yordam berish va boshqalardan iborat edi [1:350].

Germanianing ichki siyosati sarmoyalarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu siyosatning maqsadi ishsizlikni kamaytirish va iqtisodiy o’sishni oshirishdir. Kansler G.Shryoderning fikricha, bu sohada tadbirkorlar va siyosatchilarning uyg’un hamkorligi dasturlarini yaratish zarur edi. Shundagina Germaniyada ish o’rinlari uchun investitsiyalarni jalb qilish mumkin edi [2:126].

Shu boisdan ham 1998-2002-yillar oralig’ida hukumat bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy choralar olib bordi. “Bandlik Pakti” yoki “Mehnat Ittifoqi” tuzilib, uning tarkibiga hukumat vakillari, kasaba uyushmalar va tadbirkorlar vakillari kiritilgan edi. Mazkur dasturlarda asosiy maqsad ishsizlik muammosini yechish edi [1:351].

Birlashgandan so'ng o'tgan davrda Germaniyada asosiy ijtimoiy muammolardan biri ommaviy ishsizlik bo'lib keldi. Agarda 1990-yillarda GFRda 3 mln.ga yaqin ishsizlar ro'yxatga olingan bo'lsa, 2003-yilga kelib 4,7 mln., 2005-yil yanvaridan esa ularning soni rekord ko'rsatgich bo'lgan 5 mln.ni tashkil etgan [3:662]. Buni foizlarda qaraydigan bo'lsak ishsizlar kvotasi 2002-yilda 10% ga yetgan bo'lsa, 2004-yil dekabr oyining oxiriga kelib 11%ga, 2005-yil yanvar oyida esa 11,4% ga yetdi [4:445].

1999-yilning kuzida kanslerning sai-harakatlari evaziga kelgusida ko'plab ish o'rnlari yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan "Xofman" qurilish konserni bankrotlikdan saqlanib qolindi. Kansler G.Shryoderning harakati bilan GFR yirik firmalaridan bir necha yil ichida majburiy ravishda Germaniyaga keltirilib ishlatilgan ishchilar hamda "uchinchi reyx" yillarida aziyat chekkan shaxslarga yordam berish fondini shakllantirish uchun zarur bo'lgan 5 mlrd marka pul yig'ib olindi [5:298]. 1999-yilning 1-yanvarida Frankfurtda Yevropa banki o'z faoliyatini boshladi. Uning nizomi o'z-o'zini yillar davomida oqlagan GFR federal banki modeli asosida tuzilgan edi [5:299]. 2000-yildagi soliq islohoti natijasida soliq undirishdagi muammolarning hal etilishiga erishildi. 2001-yilda yagona taqsimlanuvchi va taqsimlanmaydigan foyda uchun 25% gacha vaqtinchalik pasaytirilgan to'lov belgilandi. Bunday o'zgarishlar dividend oluvchilarni ham holatini qiyinlashtirdi.

Federal hukumat 2000-yil statistikasiga ko'ra har yuzta ish bilan band aholini 34,6 %ni -ishchilarga, 54,4%ni -xizmatchilarga, 10,0%ni -mustaqil shaxslarga va 0,9%ni oilaga ko'maklashuvchilarga ajratdi. Shunday qilib XXI asr boshiga kelib GFRda ijtimoiy tizim jamiyatning "klassik 2/3" variantida bo'lgan. Zamonaviy Germaniyada aholining 90% biron bir sug'urtaga jalb etildi. 1998-yilda bu sug'urtaning maksimal miqdori daromadning umumiy miqdoridan 20,3%ga oshmagan bo'lib, ammo bu ko'rsatgich mamlakatda deyarli bepul tibbiy xizmat, 70% gacha pensiya, ishsizlik nafaqasining 60-67%ni ta'minlagan [3:662].

2002-yil avgust oyida "Folksvagen" konserni bosh menejerlaridan biri Peter Xarts boshchiligida mehnat bozorida islohot o'tkazish bo'yicha komissiya tuzilgan edi. Ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham islohot o'tkazish bo'yicha komissiyalar tuzilgan edi. 2003-yilning 17-oktyabrida G.Shryoder Bundestagda "Kun tartibi-2010" deb nomlangan islohotlar paketini taqdim etdi. Bu dasturda soliq islohotlari, kommunal tizimni moliyalashtirish, sog'liqni saqlash, nafaqaxo'rlikni ta'minlash va mehnat bozori haqida gap ketgan edi. Barcha islohotlarning asosiy g'oyasi: faqat muvaffaqiyatli iqtisodning rivojlanishi — jamiyatning farovonligini ta'minlashi kerak. Iqtisodni mustahkamlash islohotlar, sotsial rejalarни kamaytirishni ko'zda tutar edi. Bu rejalgarda ishsizlik bo'yicha yordam berish, ishsizlarga faolroq bo'lib ish qidirishi uchun bosimni kuchaytirish, ota-onalarning bolalariga beriladigan yordam pulini kamaytirish ko'zda tutilgan edi. Shunday qilib islohotlar asosida mashhur neokonservativ prinsip: ijtimoiy xarajatlarni qisqartirish hisobidan iqtisodiyotni sog'lomlashtirish turar edi. Bu yo'naliш yana bir bor amaliyotda Gerhard Shryoder boshchiligida GSDP rahbariyati partiyani yangilashning o'ng variantini tanlaganini tasdiqladi. Bu esa Germaniyada shakllangan birdamlik jamiyatini individual javobgarlik jamiyatiga aylanishiga yordam berdi. Gerhard Shryoder va uning atrofidagilari bosimi ostida "Kun tartibi 2010" islohot dasturi partiya sezdi tomonidan ma'qullandi. U sotsial-demokratlarning an'anaviy elektorati katta qismining tanqidiga ham uchradi. U boyliklarni boylardan kambag'allarga taqsimlashni nazarda tutgan. Ko'plab kasaba uyushmalari sardorlari, GSDP so'l

guruhlari, O.Lafonten tarafidolari unga qarshi chiqishgan. Gerhard Shryoder hukumatining reytingi keskin pasayib ketgan [1:352].

Angela Merkel hukumati iqtisodiyotda, xususan, ishsizlikni kamaytirish yo'nalishida ijobjiy natijalarga erisha boshladi. 2006-yilda e'lon qilgan faoliyat dasturida Angela Merkel federativ tizim, budjet va moliya tizimi, ilmiy tadqiqotlar, energetika siyosati, oila, mehnat bozori va sog'liqni saqlash, byurokratiyaga qarshi kurash sohalarida tub islohotlarni amalgamoshirishini asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tgan edi. Aniq maqsad va vazifalar belgilanmaganiga qaramay, uning boshqaruv usuli dastavval aholining keng qatlami, biznes olami vakillari va xorijiy hamkorlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Germaniyaning migratsion jihatlarini tahlil qilgan sotsiologlarning bergan ma'lumotiga ko'ra, GFRga chet elliklar kelmay qo'ysa, 2050-yilga kelib aholi soni 25 mlnga qisqaradi. Har yili GFRga 450 mingga yaqin chet ellik ishchilar keladi. Hukumat vakillari biladiki, ularsiz mamlakatda iqtisodiy o'sish, barqarorlik va demografik holat yomonlashadi. Shuni inobatga olib hukumat yangi immigratsion siyosat ishlab chiqdi. Mazkur yo'nalishda ilk qadamlar tashlandi. 2000-yilning kuzidan boshlab, kelib chiqishi chet ellik, soha bo'yicha noyob mutaxassislarga, ayniqsa dasturchilarga GFRda ishlash uchun ilk ruxsatnomalar berila boshlandi. 2001-yil 1-yanvardan fuqarolik haqidagi qonun qabul qilinib, bu qonun 1913-yilda qabul qilingan "Qon huquqi tushunchasi" qonunini, ya'ni muayyan etnik guruhga tegishlilik tushunchasiga tayangan qonunni o'rnini bosdi. Bu qonun ko'p yillar davomida GFRda istiqomat qilgan chet elliklarga bu mamlakat fuqarosi bo'lish imkonini berib, ularning farzandlari 23 yoshda Germaniya fuqarosi bo'lishi, yoki o'z ota-onalari fuqaroligini olish imkoniga ega bo'lishdi.

2010-yilning 16-oktabrida Potsdamdagi Xristian-demokratik ittifoqning yosh vakillari oldida o'zining so'zlagan nutqida Merkel kichik madaniyatshunoslik (multiculturalism) siyosati Germaniyada to'liq inqirozga uchraganini aytadi. U GFR prezidenti Kristian Vulfning ta'kidlashlarini — islam yahudiylik va xristian dinlari kabi Germaniyaning bir qismi hisoblanishini — to'liq qo'llab-quvvatlashda, Merkel immigrantlar german jamiyatiga birga qo'shilib bir butun bo'lishi uchun, xususan nemis tilini o'rganish uchun ko'proq urinishlari lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Merkel bu chorlovini migrantlarning jamiyatga singib bir butun bo'lishi siyosatini tanqid qilgan Germaniyaning boshqa ilg'or siyosatchilari uchun bildiradi. Xususan, ancha ilgariroq, Xristian-sotsial ittifoqi lideri Xorst Zeexoref bunday madaniyat vakillari turk va arab madaniyat vakillariga o'xshab boshqalardan ko'ra ko'proq integratsiyalashuvga uchraganlar, deb ta'kidlagan edi [6:210].

Xulosa. A.Merkel juda qisqa muddat ichida uning nufuzi yuqori reytinglarni zabit etdi: 2006-yilda o'tkazilgan so'rovlarda Germaniyaning 80 foiz aholisi uning siyosatidan mammunligini bildirgan. Uning hukumati nafaqat iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada ham, xususan, ishsizlikni kamaytirish yo'nalishida ijobjiy natijalarga erishdi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Шупляк П.А. Реформы Герхард Шредера в Германии: Причины и последствия. - Минск: БДУ. 2009. 375 с.
2. Umarov S.Y. History of Gerhard Schröder's views on socio-economic development of Germany //Journal of History/Habarşy Tarihi Seriâsy. – 2023. – Т. 110. – №. 3. 123-129 p.

3. Патрушев А.И. Германская история: через терни двух тысячелетий. - М.: Издательский дом Международного университета в Москве. 2007. 704 с.
4. Белова В.Б. Германия. Вызовы XXI века. - М.; Весь Мир 2009. 792 с.
5. Ватлин А.Ю. Германия в XX веке. - М.; Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2002. 336 с.
6. Angela Merkel, Lutz Zuelicke: Theoretical approach to reactions of polyatomic molecules In: Journal of Quantum Chemistry. 1990, 36, p. 210.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).